

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi
“O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi
to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish
chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-210-son qarorining
2-ilova 17-bandida 2023 yil davomida davlat organlari va
tashkilotlariga jismoniy va yuridik shaxslardan manfaatlar
to‘qnashuvi bo‘yicha kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilish
bo‘yicha axborot-tahliliy**

MA‘LUMOTNOMA

2024 yil 28-avgust

Toshkent shahri

O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-210-son qarori 2-ilovasi 17-bandida 2023-yil davomida davlat organlari va tashkilotlariga jismoniy va yuridik shaxslardan manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilish vazifasi belgilangan.

Qarorning 2-ilovasi 17-bandiga asosan 2023-yil davomida davlat organlari va tashkilotlariga jismoniy va yuridik shaxslardan manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilish maqsadida **2023 va 2024 yillar** davomida Madaniy meros agentligiga jismoniy shaxslar va yuridik shaxslardan tushgan murojaatlar o‘rnatilgan tartibda tahlil qilindi.

O‘rganish natijalariga ko‘ra, **Agentlikga 2023-yil davomida** jismoniy shaxslar va yuridik shaxslardan tushgan murojaatlar soni jami **183 nafarni** tashkil etadi.

Shundan, **20 nafari** Aholi punktlari bosh rejalarining loyixalarini ko‘rib chiqish va ularga xulosa berish, **20 nafari** Moddiy madaniy meros obyektlarini aniqlash, davlat muhofazasiga belgilangan tartibda kiritish va undan chiqarish, **20 nafari** Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlarida asrashga doir ishlarni amalga oshirish bo‘yicha ma‘lumot taqdim etish, **20 nafari** Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlarini va ularning qo‘riqlanadigan tegralarida yer qazish, yer tuzish, qurilish, melioratsiya va boshqa xo‘jalik ishlarini o‘tkazishga oid loyihalarni ko‘rib chiqish, **40 nafari** Olib kiriladigan va olib chiqiladigan madaniy boyliklar uchun xulosalar berish, ashyolarni ekspertizadan o‘tkazish, **63 nafari** Boshqa masalalar yuzasidan xulosa olish maqsadida murojaatlar kelib tushgan.

Ma'lumot o'rnida: 40 ta yozma murojaatlar, 73 ta elektron murojaatlar, 70 ta og'zaki murojaatlar (shaxsiy qabul, sayyor qabul, ma'sul xodimlar qabuli va ishonch telefoni).

2024-yil 6 oy davomida jismoniy shaxslar va yuridik shaxslardan tushgan murojaatlar soni jami **225 nafarni** tashkil etadi.

Shundan, **41 nafari** Aholi punktlari bosh rejalarining loyihalarini ko'rib chiqish va ularga xulosa berish, **33 nafari** Moddiy madaniy meros obyektlarini aniqlash, davlat muhofazasiga belgilangan tartibda kiritish va undan chiqarish, **24 nafari** Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlarida asrashga doir ishlarni amalga oshirish bo'yicha ma'lumot taqdim etish, **37 nafari** Olib kiriladigan va olib chiqiladigan madaniy boyliklar uchun xulosalar berish, ashyolarni ekspertizadan o'tkazish, **90 nafari** Boshqa masalalar yuzasidan xulosa olish maqsadida murojaatlar kelib tushgan.

Ma'lumot o'rnida: 58 ta yozma murojaatlar, 7 ta elektron murojaatlar, 160 ta og'zaki murojaatlar (shaxsiy qabul, sayyor qabul, ma'sul xodimlar qabuli va ishonch telefoni).

Jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilish natijasida Agentlikga 2023-2024-yillar davomida manfaatlar to'qnashuvi yuzasidan murojaatlar kelib tushmaganligi ma'lum bo'ldi.

Ma'lumot o'rnida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar berish hamda ularni tartibga solish maqsadida **Agentlikni maxsus ishonch telefon raqami joriy etildi (71/200-01-18)**, manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida murojaat qoldirish xabar berilish uchun axrorbekhayullayev85@gmail.com, [madaniymchatuz,https://mail.Madaniy_meros.uz](mailto:madaniymchatuz@https://mail.Madaniy_meros.uz), antikor@madaniymeros.uz xavolar joriy etilgan.

Agentlikning Devonxona va murojatlar bilan ishlash bo'limining jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar yuzasidan tahliliy ma'lumotnomalari ilova qilinmoqda.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish
bo'limi bosh mutaxassisi**



B.Rashidova